

DARS JARAYONIDA KEYS – STADI METODLARIDAN FOYDALANISHNING
AHAMIYATI

Tursunov Farxod Baxodir o'g'li
Cho'lliboyeva Latofat Rashidovna

Termiz shahar 13 - umumiy o'rta ta'lim maktabining informatika fani o'qituvchilari
farxoddd1007@gmail.com

Annotatsiya: *Ushbu maqolada dars jarayonida Keys - Stadi metodidan foydalanish hamda uning ahamiyati haqida bilib olishingiz mumkin.*

Kalit so'zlar: *Keys - Stadi, muammoli ta'lim, amaliy holatlarni o'qitish metodi, guruhli keys.*

Abstract: *In this article, you can learn about the use of the Case-Stadi method in the teaching process and its importance.*

Keywords: *Case - Study, problem education, method of teaching practical cases, group case,*

Аннотация: *В этой статье вы можете узнать об использовании метода Кейс-Стади в учебном процессе и его важности.*

Ключевые слова: *Кейс - Стади, проблемное образование, методика обучения практическим случаям, групповой Кейс.*

Bugungi kunda zamonaviy axborot texnologoyaning rivojlanishi barcha sohalarda juda katta yangilanish va rivojlanishlarga sabab bo'lmoqda. Xususan ta'lim sohasidagi o'zgarishlar yaqin kelajakda o'z zamonasidan ilgari ketgan yetuk mutaxasislarni yetishtirib chiqarishi turgan gap. Bu sohadagi har bitta o'zgarish va yangilanish ko'plab sinovlar va tajribalar asosida sodir bo'lmoqda. Bitta yetuk kadrlarni jamiyatga yetkazib berish uchun ko'p ishlar olib borilmoqda. Albatta bu yangilanishlar orasida muammoli vaziyatlar ham yo'q emas. Shu muammolarni hal etish uchun esa kerakli ishlar amalga oshirilmoqda. Bu ishlar nafaqat bir martalik balki, ushbu chora tadbirlarni kelajak avlodga ham o'rgatish muhim ahamiyat kasb etadi.

Bugun ta'lim sohasida bo'layotgan islohotlar jamiyatimizning har bir sohasi kabi jahon tajribasidan andoza olgan holda amalga oshirilmoqda. Xususan ta'limda qo'llanilayotgan metodlar, usullar va bajarilayotgan amaliy tajribalar shular jumlasidandir.

Ushbu sohadagi ko'plab muammolarni bartaraf etish usullarini o'rganish sifatida bugun ko'plab metodlardan foydalanilmoqda. Shulardan biri - bu keys - stady metodidir. Ushbu metod jahonning ilg'or ta'lim muassasalarida qo'llanilib o'z samarasini ko'rsatgan. Biz esa bu metod orqali yosh kadrlarga muammolarga nisbatan o'z qarashlarni o'zgartirishlarini va uni bartaraf etish usullarini o'rgatmoqdamiz. Chunki bu zamon talabidir. Muammoning katta yoki kichigi bo'lmaydi. Har bir muammo o'z vaqtida samarali hal etilishi kerak. Yosh mutaxasislar esa ushbu jarayonlarni o'z ko'zlari bilan ko'rib, uni atroflicha o'rganib, so'ngra uni bartaraf etish usullarini o'rganishadi. Ushbu metodda hozirgi kunda juda ko'plab ta'lim muassasalari qo'lamoqda. Ayniqsa oliy ta'limda qo'llanilishi bugungi kunning dolzarb masalasidir. Bunday

metod orqali har bitta ulg'ayib kelayotgan yosh mutaxassislar yaqin kelajakda jamiyatning boshqa sohalaridagi insonlarga ham o'z tajribasini ulashishi aniq.

Buyuk kelajagimizni bugungi yosh avlod bilan birga qurar ekanmiz bugungi kunda mavjud barcha muammolar va kamchiliklar ustida mukammal ishlab ularni bartaraf etishimiz va buni kelajak avlodga ham o'rgatishimiz zarur.

Ta'lim tizimida samarali metodlardan foydalanishda nimalarga e'tibor berish kerak. Biz uchun qaysi metod ko'proq samara beradi degan savollar yuzaga kelishi bor gap. Bu savolga javobni muaayyan holda berish mushkul. Chunki dars metodi fanning turi, mavzuning qanday ekanligi va o'qituvchining pozotsiyasiga qarab tanlanadi. Biz yuqorida aytib o'tgan Keys - Stadi metodini qaysi holatda ishlatishimiz mumkin? Bunga ham ixtiyoriy ravishga murojaat qilinadi. Keys - Stadi metodi haqida esa quyida siz bilan batafsil gaplashamiz.

Bu metodning nomi inglizcha **“case-study”** so'zlaridan olingan. Bunda **“case”** - yashik, quti, gilof, jild, **“study”** - o'rganish, tadqiq qilish, ilm bilan shug'ullanish, o'quv fani, saboq olish, o'qish ma'nolarini bildiradi. Bu metod haqida inglizcha aytiladigan **“case - true life”**, ya'ni **“keys - haqiqiy hayot”** iborasiga ko'ra keys - real hayotning **«bir parchasidir»**. Shunga ko'ra bu metodni **“amaliy holatlarni o'qitish metodi”** deb ham ataladi.

Keys-stadi metodi bo'yicha o'rganilayotgan har bir muammo yoki mavzu yuzasidan amalga oshiriladigan ishlar rejasi, ularni bajarish tafsiloti, natijalar va xulosalar yig'indisi alohida keysni tashkil qiladi. Bu metod ta'lim jarayonida hayotiy vaziyatlardan foydalanishga qaratilgan. Bu esa, hozirgi kunlarda ta'lim sohasidagi dolzarb bo'lgan muammolardan hisoblanadi. Ushbu muammoni hal qilish imkonini berishi bu metodning alohida ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatib turibdi.

Bu metod ta'lim oluvchilarga mavzuga tegishli hayotiy vaziyatni tashxis qilish, farazlarni ifodalash, muammolarni aniqlash, qo'shimcha axborotlarni yig'ish, farazlarga aniqlik kiritish va muammolarni echish hamda ularni bajarishning aniq bosqichlarini loyihalash bo'yicha amaliy faoliyatlarini modellashtirish imkonini beradi.

Muayyan hayotiy vaziyatlarga bag'ishlangan keyslardan foydalanish ta'lim jarayonini haqiqiy hayot bilan bog'laydi. Keysni ko'rib chiqishda ta'lim oluvchilar ta'lim olish jarayonini yaratadilar. Shu jarayondagi o'zaro harakatda ularning haqiqiy fikr almashish holatlari kelib chiqadi. Keys ta'lim oluvchilarga tahlil qilish, qiyoslash yo'llarini qidirish va muammoni echish erkinligini beradi.

Masalaning muammolilik jihatlari aniqlashtiriladi, maqsad va vazifalari, tadqiqot yo'nalishlari belgilaniladi. O'quvchilar muammoli vaziyatlarni hal qilishning turli variyatlarini ilgari suradilar, mulohaza yuritadilar, eng ma'qul hisoblangan g'oyalarni muhokamaga qo'yadilar, qarorlarni qabul qiladilar

O'quvchilar kelgusi mehnat faoliyatini aniq rejalashtirilishini o'rganadilar, favqulotda holatlar sodir bo'lsa, eng to'g'ri yechim va qarorlarni qabul qilishga, ta'lim jarayonida to'plangan nazariy ma'lumotlarni rivojlantirgan holda amaliyotga ijodiy tadbiiq qilishga tayyor bo'ladilar.

Ushbu texnologiyaning yana bir afzaligi shundaki, o'quvchilarda kasbiy axloq me'yorlari haqida tushunchalar shakllanadi va rivojlanadi. Olar o'zlarini bo'lg'usi kasbiy faoliyati qay darajada tayyor ekanliklarini sinab ko'radilar.

Ular o‘z qobiliyatlarini aniq baholagan holda rivojlanish imkoniyatlari to‘g‘risida o‘ylab ko‘radilar.

Keys-stadi texnologiyasi ham barcha texnologiyalar kabi tur va manbalarga o‘z ichiga oladi. Bular orqali keys-stadi texnologiyasi haqida talabalar to‘liq ma‘lumotlar oladilar va o‘quv mashg‘ulotlarida qo‘llash imkoniyatlariga ega bo‘ladilar.

Keyslarni guruhlashtirishda, ularining mazmun mohiyatiga e‘tibor beriladi, ularni guruhlashtirishda asosan maqsad vazifalar inobatga olinadi. Shuning uchun ham keyslarni guruhlashtirish bir muncha qiyin kechadi.

Ho‘sh bu Keys -Stadi metodidan dasr jarayonida qanday foydalanamiz. Bu metodni quyidagi “Sanoq Sistemalarini o‘qitish” mavzusi uchun qo‘llab ko‘ramiz.

“Keys - Stadi” metodini vaqtimizni kam sarflashimiz uchun uch bosqichda olib boramiz.

| Ish bosqichlari | Faoliyat shakli va mazmuni |
|---|---|
| 1 - bosqich: Keys bilan tanishish | <ul style="list-style-type: none"> • Keys bilan tanishish. • Axborot bilan tanishish. • Muammoni aniqlashtirish. |
| 2 - bosqich: Keysni aniqlashtirish va muammoni yechimini topish yo‘llari. | <ul style="list-style-type: none"> • Guruhda yoki individual ishlash. • Asosiy muammoli vaziyatni belgilash. • Muqobil yechimni ishlab chiqish. • Yechim imkoniyatlarini ko‘rib chiqish |
| 3 - bosqich: Keysni yechimini tahlil qilish. | <ul style="list-style-type: none"> • Yechimning ijodiy loyihasini tayyorlash. • Yakuniy xulosalarni tahlil qilish. |

Topshiriqlarni berish uchun sinfdagi o‘quvchilarni 3 guruhga bo‘lib chiqamiz.

Guruhlarga esa quyidagi savollarni taqdim etamiz.

1 - guruh uchun Keys:

Sanoq sistemalari bilan sanash o‘rtasida qanday muhim bo‘g‘liqlik bor? Uni hayotda qanday qilib tushuntirish mumkin.

2 - guruh uchun Keys:

Ixtoyoriy sanoq sistemasini ishlab chiqishda qanday meyoriy qoidalarga rioya etish kerak? Buni o‘ziningiz tuzib chiqqan sanoq sistemasi misolida tushuntiring.

3 - guruh uchun Keys:

Sanoq sistemalari ustida amallar bajarishda qiyinchilikka duch kelmaslik uchun nimalar qilish kerak? Buni biror murakkab misolda tushuntiring.

Ushbu savollarga javob berish uchun vatqni to‘g‘ri taqsimlash zarur. Barcha guruhlar javob berish uchun tayyor bo‘lganda javoblar eshitiladi va tahlil qilinadi.

Keysda bayon qilingan savollar uyga vazifa sifatida ham beriladi. Har bitta o‘quvchi bu keyslarga individual yechim topishga harakat qiladilar.

Bu metodning nazariy ko‘rinishi hisoblanib, dars jarayonida o‘qituvchi o‘zining pedagogik hamda kasbiy mahorati evaziga metodni yanada boyitishi va qo‘shimchalar qo‘shishi mumkin.

Keysda taqdim etilgan aniq vaziyat ta’limning voqelik bilan o’zaro aloqasini ta’minlaydi, chunki u kelgusidagi kasbiy faoliyat uchun tipik muammolarni aks ettiradi. Bunda o’rganish jarayoni o’z mohiyatiga ko’ra, real hayotdagi yechim qabul qilish mexanizmini ifodalaydi. Keys undan foydalanuvchiga muammolarni tahlil etish, bir xillashtirish va hal qilish yo’llarini izlashda erkinlik beradi. Keysni ko’rib chiqishda tinglovchilar ta’lim jarayonining tashkilotchilariga aylanadilar va bir-birlari bilan o’zaro bahamjihat harakat qilish orqali real kommunikation holatlarni ifodalashadi (masalan, bank-korxonalar). Ta’lim oluvchilar aniq vaziyatni ko’rib chiqish jarayonida muayyan umumlashgan, konseptual tusga ega bilimni shakllantirishga muvaffaq bo’ladilar va ayni bir paytda oddiy umumlashtirish malakalarini orttiradilar.

Keys-stadi texnologiyasining asosiy maqsadi o’quv guruh o’quvchilarning bilim olish jarayonini faollashtirish, mavjud muammoli vaziyatlarni hal qilish orqali ularning ilmiy-ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishdan iboratdir. Shuningdek texnologiya talabalarning bilim, ko’nikma, malakalarini hamkorlikda qo’llashga, taklif qilingan yechimlarni tahlil qilish orqali muqobil yechimini izlashga o’rgatuvchi ta’lim texnologiyasidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. *Azizxodjaeva N.N.* Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat - T.: TDPU, “Nizomiy”, 2003.
2. *Sh. Shoyakubov, R. Ayupov.* Interfaol ta’lim usullari. Toshkent, «Tafakkur-bo’stoni» nashriyoti, 2012 yil.
3. *Golish L.V., Fayzullaeva D.M.* Pedagogik texnologiyalarni loyihalashtirish va rejalashtirish: O’quv uslubiy qo’llanma/ Innovatsion ta’lim texnologiyalari seriyasi. - T.: “Iqtisodiyot”, 2012.
4. *Yo’ldoshev J., Usmonov S.* Pedagogik texnologiya asoslari. T. “O’qituvchi”, 2004. *Mavlyanov A. va boshqalar.* O’quv mashg’ulotlarini tashkil etishda ta’lim texnologiyalari. O’quv qo’llanma. «Tafakkur bo’stoni» nashriyoti, Toshkent, 2013.

INTERNET MATERIALLARI:

1. www.ziyouz.com
2. www.arxiv.uz
3. www.venngage.com
4. www.bluleadz.com/
5. www.ziyonet.uz
6. www.tami.uz